ELEKTRON HUKUMAT VA RAQAMLASHTIRISH KORRUPSIYANI KAMAYTIRISH VOSITASI SIFATIDAELEKTRON HUKUMAT VA RAQAMLASHTIRISH KORRUPSIYANI KAMAYTIRISH VOSITASI SIFATIDA O‘RNI

O’zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi
Tajiyeva Navro‘za Baxtiyor qizi,
E-mail: navruzatajiyeva@gmail.com
Tel: (94) 412-22-03

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shakllangan milliy tizimning tarkibiy tuzilmasi, uning huquqiy asoslari va amaliy faoliyat yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Korrupsiyani bartaraf etishning samarali yo‘llari sifatida institutsional islohotlar, raqamli boshqaruv tizimlari va xalqaro hamkorlik misolida yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Muallif milliy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha muhim taklif va tavsiyalarni ham ilgari suradi.*

Kalit so‘zlar. *Korrupsiya, milliy mexanizm, huquqiy asos, davlat siyosati, institutsional islohot, xalqaro standartlar, fuqarolik jamiyati.*

Anotatsiya. *Ushbu tezisda elektron hukumat va raqamlashtirishning korrupsiyani kamaytirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Asosiy e’tibor elektron xizmatlarning inson omilini qisqartirish, davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish va byurokratik to‘siqlarni kamaytirishdagi samaradorligiga qaratilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, davlat xizmatlarini elektronlashtirish, davlat xaridlari jarayonlarini ochiq e’lon qilish va korrupsiya haqida onlayn xabar berish mexanizmlari tahlil etiladi. Shuningdek, Estoniya, Janubiy Koreya va Gruziya kabi xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilib, O‘zbekiston amaliyotiga mos keluvchi xulosalar chiqarilgan. Tadqiqotda mavjud muammolar — internet infratuzilmasining cheklanganligi, qog‘oz va elektron tizimlarning parallel yuritilishi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishdagi kamchiliklar — ko‘rsatib o‘tilgan va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tezisda elektron hukumatni takomillashtirish korrupsiyaga qarshi kurashning muhim vositasi sifatida baholangan.*

Kalit so‘zlar: *elektron hukumat, raqamlashtirish, korrupsiya, davlat xizmatlari, shaffoflik, O‘zbekiston tajribasi.*

Annotation. *This thesis examines the role and significance of e-government and digitalization in reducing corruption. The study emphasizes the effectiveness of electronic public services in minimizing human involvement, enhancing transparency*

in public administration, and reducing bureaucratic barriers. The paper analyzes reforms implemented in Uzbekistan under the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy, particularly the digitalization of public services, the introduction of open electronic procurement, and mechanisms for online corruption reporting. Furthermore, the experiences of foreign countries such as Estonia, South Korea, and Georgia are reviewed, with relevant conclusions drawn for Uzbekistan's context. The study also identifies existing challenges, including limited internet infrastructure, the parallel operation of paper and electronic systems, and shortcomings in personal data protection. Practical recommendations are proposed to address these issues. The thesis concludes that strengthening e-government is one of the most effective tools in the fight against corruption.

Keywords: *e-government, digitalization, corruption, public services, transparency, Uzbekistan experience.*

Аннотация. *В данной тезисной работе рассматривается роль и значение электронного правительства и цифровизации как эффективных инструментов снижения уровня коррупции. Подчеркивается, что внедрение электронных государственных услуг способствует сокращению человеческого фактора, повышению прозрачности государственного управления и устранению излишних бюрократических барьеров. Особое внимание уделено реформам, реализуемым в Узбекистане в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030», включая цифровизацию государственных услуг, внедрение открытых электронных закупок и создание онлайн-механизмов для сообщений о коррупции. В работе также проанализирован зарубежный опыт (Эстония, Южная Корея, Грузия), сделаны выводы и рекомендации, применимые в условиях Узбекистана. Выявлены существующие проблемы: ограниченность интернет-инфраструктуры, параллельное функционирование бумажных и электронных систем, недостатки в защите персональных данных. В завершение даны практические предложения по их решению.*

Ключевые слова: *электронное правительство, цифровизация, коррупция, государственные услуги, прозрачность, опыт Узбекистана.*

Kirish. Dunyoda davlatlarning barqaror rivojlanishiga to‘siq bo‘lgan korrupsiya illati rivojlanib bormoqda va buning oldini olishda jahon hamjamiyati tomonidan bir qator keskin chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar qatorida “Elektron hukumat’ instituti korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etib, o‘zining samaradorligini ko’rsatib kelmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, XXI asrda global miqyosda korrupsiya jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy adolatga va demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishiga jiddiy tahdid soladigan muhim muammo hisoblanadi. Korrupsiya nafaqat davlat byudjeti mablag'larining

o‘zlashtirilishiga, balki iqtisodiyotning turg‘un rivojlanishini sekinlashtirishiga, investorlarning ishonchini yo‘qotishiga va aholining davlatga bo‘lgan ishonchini pasayishiga olib keladi. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurashishda “Elektron hukumat” institutini yandan kengroq joriy qilish barcha davlatlar uchun ustuvor vazifadir. Darvoqe, korrupsiya davlat institutlariga bo‘lgan ishonchni susaytirib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtiradi hamda mamlakatning xalqaro maydondagi nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bugungi kunning dolzarb masalalaridan qatorida korrupsiyaga qarshi samarali kurash tizimini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi barqaror rivojlanayotgan dunyoda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi korrupsiyaga qarshi kurashish usullarini takomillashtirishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ayniqsa, “Elektron hukumat” institutining keng joriy etilishi davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga qulaylik yaratish hamda korrupsiya xavfini kamaytirishning samarali vositalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Jahonda korrupsiyaga qarshi kurashishda “Elektron hukumat” institutlarini yanada takomillashtirishning istiqbollari yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, “Elektron hukumat” institutining nazariy va huquqiy asoslari rivojlanishi va korrupsiyaga qarshi kurashishdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish masalalalari, davlat organlari va tashkilotlarida “Elektron hukumat” institutini joriy etilishi hamda undagi yuzaga kelayotgan va kelishi mumkin bo‘lgan asosiy muammo va to‘siqlarni bartaraf etish mexanizmlari, davlat organlari va tashkilotlarida “Elektron hukumat” institutidan korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishda foydalanishda davlatlar xorijiy davlatlar bilan o‘zaro hamkorlik o‘rnatib tajriba almashishi natijasida amaliyotga qo’llash masalalalari, shuning bilan birga ushbu “Elektron hukumat” instituti bo‘yicha xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalarni o‘rganib, korrrupsion holatlarni oldini olishda kelajakdagi rejalarni belgilash masalalari bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Misol tariqasida olib qaraydihan bo‘lsak, rivojlangan mamlakatlar qatorida Singapur, Koreya hamda Skandinaviya davlatlari “Elektron hukumat” ning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi innovatsion tadqiqotlari va natijalarni keng o‘rganib chiqmoqdalar. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, jahon banki va boshqa bir qator xalqaro moliyaviy institutlar “Elektron hukumat” ni rivojlantirish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha loyiha va tadbirlarni amalga oshirmoqdalar. Bundan tashqari, So‘nggi yillarda dunyoning rivojlangan davlatlari, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarda "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu mamlakatlarning yetakchi universitetlari hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida korrupsiyaga qarshi raqamli yechimlar ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida o‘rganilmoqda. Xususan,

Garvard universiteti, Oksford universiteti va Stenford universiteti kabi nufuzli ta’lim maskanlarida korrupsiya xavfini kamaytirish bo‘yicha innovatsion texnologiyalar, blokcheyn tizimlari, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (big data) asosida tahlil qilish usullari chuqur tadqiq etilmoqda.

Ushbu ilmiy izlanishlar natijasida davlat boshqaruvida ochiqlikni oshirish, korrupsiyaviy omillarni kamaytirish va fuqarolar ishonchini mustahkamlashga qaratilgan turli elektron platformalar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda “Elektron hukumat” institutidan foydalanish va uning keng joriy qilish masalalari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etib o‘rganish ko‘proq rivojlangan xorijiy davlatlarning olimlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Xususan, Kaliforniya universiteti professori R. Klitgaard tomonidan "Controlling Corruption" (Korrupsiyaga qarshi kurashish), bundan tashqari boshqa bir qator olimlar tomonidan, V. Tanzi dunyo bo‘yicha korrupsiya: uning sabablari, oqibatlari va bartaraf etish choralari, T. B. Andersen korrupsiyaga qarshi kurashishda elektron hukumatning o‘rni, F. Lopez-Ituraea, I. Pastor Sanz neyron tizimlar orqali davlat korrupsiyasini bashorat qilish: Ispaniya misolida, Addo, Atta & P. K. Senyo esa rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamlashtirish va davlat korrupsiyasi: kontseptsiya va tadqiqot dasturi, Jaanus Karv elektron hukumat va uning korrupsiyani kamaytirishdagi imkoniyatlari, Haafst, Robert esa raqamlashtirishning korrupsiyaga ta’siri, Goel, Nelson va Naretta korrupsiya uchun axborot texnologiyalaridan noto‘g‘ri foydalanish mavzularida tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Respublikamizda ham so‘nggi yillarda korrupsiya va uni oldini olishga qaratilgan hamda davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va elektron hukumatni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqilib, 2020-yilda “Yoshlar daftari” davlat dasturida 750 mingdan ortiq fuqarolar uchun shaxsiy kabinetlar tashkil etilib, bu orqali fuqarolar o'z murojaatlarini onlayn tarzda yuborish imkoniyatiga ega bo'lishdi. So‘ngi yillardagi islohotlar natijasida davlatimizda “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish maqsadida Davlat xizmatlari agentligi faoliyati kuchaytirilib, davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish darajasi sezilarli darajada oshirildi. 2023-yilga kelib, E-Gov tizimi orqali 300 dan ortiq turdagi davlat xizmatlari ko'rsatish yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, "Ochiq ma’lumotlar portali", "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" “E-kommunal.uz” portali, Statistika, soliq va boshqa moliyaviy hisobotlarni tadbirkorlik subyektlaridan elektron ko‘rinishda yig‘ish va qayta ishlash tizimi (stat.uz, soliq.uz), “Ochiq ma’lumotlar portali” kabi loyihalar amaliyotga keng tatbiq etilib, davlat xizmatlarida shaffoflikni oshirishgava korrupsion xavf xatarlarni oldini olishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda "Korrupsiyasiz soha" tamoyili asosida davlat organlarida raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish bo‘yicha keng qamrovli

dasturlar ishlab chiqildi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida davlat xizmatlarida korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish, fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini oshirish va biznes yuritish uchun qulay muhit yaratish borasida sezilarli natijalarga erishilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi va “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonuni, “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruzasi haqida” O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori, “Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining o‘z faoliyati bo‘yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kabi bir qator normativ huquqiy hujjatlar bu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatlar asosida davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, byurokratik jarayonlarni qisqartirish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali mexanizmlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

AQShning elektron hukumatni joriy etish bo‘yicha davlat strategiyasiga ko‘ra, elektron hukumat – fuqarolar hamda tashkilotlarning hukumat bilan o‘zaro munosabatlarini soddalashtirish, soliq to‘lovchilarning mablag‘larini tejash va umuman davlat hamda aholi o‘rtasidagi turli aloqalarni takomillashtirish maqsadida ilg‘or internet texnologiyalaridan foydalanishdir. “Bunda elektron hukumat faqatgina rasmiy hujjatlarning turli shakllarini internetda joylashtirish bilan cheklanmay, balki aholi va biznes subyektlariga AKTdan foydalangan holda xizmatlar va zarur ma’lumotlardan to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratishga qaratilgan tizim sifatida talqin etiladi.”[1]

Kanada hukumati rasmiy hujjatlarida elektron hukumat fuqarolarga axborot texnologiyalari yordamida xizmat ko‘rsatish tizimi sifatida ta’riflanadi. Bundan tashqari, bu tizim mijoz manfaatlarini ustuvor deb bilishga asoslangan bo‘lib, xizmat ko‘rsatish jarayoni idoraviy javobgarlik chegaralaridan qat’i nazar amalga oshirilishini nazarda tutadi. Ya’ni, “fuqaro yoki tadbirkorlik subyekti zarur xizmatni turli davlat

[1] . E-Government Strategy: Implementing the Presidents Management Agenda for E-Government. – Office of Management and Budget, 2002. - 34 p

idoralari orqali emas, balki yagona davlat portali orqali tez va qulay tarzda olishi mumkin."[2]

Davlat boshqaruvini raqamlashtirish — davlat organlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalangan holda boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, davlat xizmatlarini onlayn ko'rsatish, ma'lumotlar almashinuvini yagona raqamli platformalarda markazlashtirish va fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni soddalashtirish orqali shaffoflik, ochiqlik, hisobdorlik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan tizimli yondashuv. Ushbu prinsip inson omilini minimallashtirish, qaror qabul qilishda subyektiv aralashuvni cheklash va davlat faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini berish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositasidir.

Davlat boshqaruvini raqamlashtirish — davlat organlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalangan holda boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, davlat xizmatlarini onlayn ko'rsatish, ma'lumotlar almashinuvini yagona raqamli platformalarda markazlashtirish va fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni soddalashtirish orqali shaffoflik, ochiqlik, hisobdorlik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan tizimli yondashuv. Ushbu prinsip inson omilini minimallashtirish, qaror qabul qilishda subyektiv aralashuvni cheklash va davlat faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini berish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositasidir.

Xulosa qilib aytganda, davlatning korrupsiyaga qarshi huquqiy siyosati, avvalo korrupsiyaga qarshi kurashishda eng yangi texnologiyalardan foydalanish imkonini beruvchi ilmiy texnikaviy taraqqiyot yutuqlariga bog'liq ekanligini asoslagan holda "Elektron hukumat vositalarini yanada kengroq joriy qilish O'zbekistondagi korrupsiyaga qarshi kurashishning muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omil ekanligi ko'rishimiz mumkin. "Elektron hukumat" inson omilini minimallashtirib, davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, qarorlarni qabul qilishda ochiqlik va nazorat mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qilishi sababli, korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim strategik vosita ekanligi haqida xulosa ilgari surish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida "Elektron hukumat" bo'yicha mavjud huquqiy baza yetarli asosga ega bo'lsa-da, ushbu tizimni samarali joriy etish uchun davlat xizmatchilarining raqamli kompetensiyalarini oshirish, shuning bilan birga aholi raqamli savodxonligini oshirish, infratuzilmaviy muammolarni bartaraf etish va davlat xizmatlarini raqamlashtirishda mavjud moliyaviy to'siqlarni oldini olishda budjet siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligi haqida xulosalarga kelindi Shuningdek, mahalliy kengashlar huzurida tuzilgan hududiy antikorrupsiya komissiyalari joylarda

[2] Разработка типовых требований к процессам информатизации органов государственной власти, включая разработку единой методологии построения "электронного правительства". Отчет о научно-исследовательской работе. Часть 1 – М., Министерство экономического развития и торговли РФ, 2003. – С. 116.

muammolarni hal qilishda aholi va davlat o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 3-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida´gi qonuni 18.11.2015.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, PF–6013-son, 2020-yil 29-iyun.
4. “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun, 2022-yil.
“O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruzasi haqida” O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori,
5 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining o‘z faoliyati bo‘yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5177-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori 06.07.2021 PQ–5177-sonli.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1730-qarori 21.03.2012
8. United Nations Convention against Corruption (UNCAC), 2003.
9. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023.
10. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy hisobotlari — www.anticorruption.uz
11. OSCE/UNDP: “Preventing Corruption: Best International Practices”, 2022.